



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60710400 – Energetika muhandisligi
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60710400 – Energetika muhandisligi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: MELIQO'ZIYEV MIRKOMIL VOXIDJON O'G'LI

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

falsafa doktori (PhD), dotsent



A'zo: MOHIT BHANDWAL

Amity University Tashkent

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260062
Xulosa raqami	1221
Xulosa sanasi	26.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Namangan shahri, Davlatobod tumani, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Litsenziya: № 2734834, 20.02.2025. Guvohnoma: MAS № 0000391, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Energetika muhandisligi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60710400
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 2734834, 20.02.2025
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60710400 – Energetika muhandisligi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60710400 – Power Engineering
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60710400 – Энергетическая инженерия
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	masofaviy
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	—
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	400 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Namangan shahri, Yangi Namangan tumani, Islom Karimov ko'chasi, 12-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Qisman muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

60710400 – "Energetika muhandisligi" ta'lim dasturi bo'yicha tashkiliy-boshqaruv tizimi hamda ta'lim sifatini ichki ta'minlash mexanizmlariga oid hujjatlar va amaliyot holati tahlil qilindi. O'rganish natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma sifatida "Energetika muhandisligi" kafedrası faoliyat yuritayotgani, istiqbolli rivojlanish rejasi ishlab chiqilgani, mas'ullar va ijro muddatlari aniq belgilanganligi hamda ichki monitoring tizimi yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Shu bilan birga, sifatni ichki ta'minlash tizimi bo'yicha 1.3-mezon doirasida monitoring natijalari asosida qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarini hamda manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini hujjatlashtirish jarayonlari to'liq tizimlashtirilmagani qayd etildi. Mazkur holat yuzasidan KPI ko'rsatkichlari asosida monitoringni tashkil etish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, manfaatdor tomonlarning taklif va mulohazalarini muntazam hujjatlashtirish hamda ta'lim dasturini davriy ravishda qayta ko'rib chiqish mexanizmlarini yanada rivojlantirish tavsiya etildi. Aniqlangan kamchiliklar ta'lim dasturining umumiy sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan va bartaraf etilishi mumkin bo'lgan jihatlar sifatida baholandi. Tahlil natijalari asosida mazkur bobning qolgan barcha mezonlari belgilangan talablarga muvofiq ekani tasdiqlanib, bob umumiy baholash yakunlariga ko'ra muvofiq deb e'tirof etildi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Ta'lim dasturining mazmuni, o'quv reja, malaka talablari, fan dasturlari, kutilayotgan ta'lim natijalari hamda kompetensiyalarni shakllantirishga oid hujjatlar atroflicha tahlil qilindi. O'rganish natijasida ta'lim dasturi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, kredit-modul tizimi tamoyillari hamda universitetning ichki me'yoriy hujjatlari asosida ishlab chiqilgani aniqlandi. Dastur

maqsadlari, o'quv natijalari va bitiruvchilarda shakllantirilishi ko'zda tutilgan kasbiy kompetensiyalar energetika sohasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda belgilanganligi qayd etildi. Shuningdek, fanlar mazmunining o'zaro uzviyligi va izchilligi ta'minlangan bo'lib, nazariy tayyorgarlikni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilgani kuzatildi. Muhandislik yo'nalishining masofaviy ta'lim shaklida nazariy modullarni amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bilan samarali muvofiqlashtirish talabalarda zarur kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim shartlaridan biri sifatida baholandi. O'tkazilgan tahlillar mazkur bob bo'yicha belgilangan mezon va talablarning bajarilganini tasdiqladi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

Ta'lim jarayonini tashkil etish, amaliy tayyorgarlikni yo'lga qo'yish, talabalar bilimini baholash, murojaat va shikoyatlarni ko'rib chiqish hamda akademik halollikni ta'minlash bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar va mavjud amaliyot o'rganildi. Baholash davomida o'quv jarayonini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar amaldagi talablarga muvofiq ishlab chiqilgani, baholash mezonlari talabalar uchun ochiq e'lon qilingani va qayta aloqa tizimi samarali yo'lga qo'yilgani kuzatildi. Akademik halollik tamoyillariga rioya etish, murojaatlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish hamda ularning yechimini ta'minlash bo'yicha amaliy mexanizmlar izchil qo'llanilayotgani ham o'z tasdig'ini topdi. Masofaviy ta'lim shaklida amalga oshirilayotgan muhandislik dasturi uchun baholash jarayonlarining ishonchliligini ta'minlash, laboratoriya mashg'ulotlarini reja asosida tashkil etish va elektron ta'lim platformasi imkoniyatlarini izchil rivojlantirish ta'lim sifati va o'quv natijalariga erishishda muhim omil sifatida e'tirof etildi. Mazkur yo'nalish bo'yicha taqdim etilgan dalillar o'quv jarayonini tashkil etish amaldagi akkreditatsiya mezonlari talablariga mos ravishda yo'lga qo'yilganini ko'rsatdi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Mazkur bob doirasida talabalarni qabul qilish, qabul natijalarini e'lon qilish, apellyatsiya jarayonlarini tashkil etish, talabalar kontingenti harakati hamda ularni akademik, ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimining amaldagi holati ko'rib chiqildi. Taqdim etilgan hujjatlar va mavjud amaliyot qabul jarayonlari belgilangan me'yoriy talablar asosida shaffof tashkil etilganini, qabul natijalarini e'lon qilish hamda apellyatsiya murojaatlarini ko'rib chiqish tartiblari aniq reglamentlashtirilganini ko'rsatdi. Talabalar kontingenti bilan ishlash, ularning

akademik faoliyatini kuzatish va zarur hollarda ijtimoiy hamda psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha barqaror tizim shakllantirilgani kuzatildi. Dastur bo'yicha belgilangan 400 nafar qabul parametri kafedraning professor-o'qituvchilar salohiyati, mavjud moddiy-texnik infratuzilma va masofaviy ta'lim platformasi imkoniyatlari bilan o'zaro muvofiqlashtirilgan holda rejalashtirilgani aniqlandi. Shuningdek, masofaviy ta'lim olayotgan talabalar bilan uzluksiz aloqa o'rnatish, ularga o'z vaqtida maslahat va amaliy ko'mak berish mexanizmlarining mavjudligi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etildi. Amalga oshirilgan baholash natijalari ushbu yo'nalish bo'yicha belgilangan sifat mezonlari talablariga rioya etilganini ko'rsatdi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Mazkur bob doirasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan professor-o'qituvchilar tarkibi, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi hamda o'quv-yordamchi xodimlarning salohiyati baholandi. Taqdim etilgan ma'lumotlar kafedrada 28 nafar professor-o'qituvchi faoliyat olib borayotganini, ularning mutaxassisligi o'qitilayotgan fanlar mazmuniga mos kelishini hamda ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish uchun yetarli kadrlar salohiyati shakllantirilganini ko'rsatdi. Professor-o'qituvchilarning malakasini muntazam oshirish, ularni rag'batlantirish va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy mexanizmlar izchil yo'lga qo'yilgani kuzatildi. Energetika yo'nalishining ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligi sababli amaliyotchi muhandislarni o'quv jarayoniga keng jalb etish talabalarining zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishi va kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha taqdim etilgan dalillar inson resurslari tizimi belgilangan mezonlarga mos ravishda shakllantirilganini tasdiqlaydi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Mazkur bobda ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yaratilgan moddiy-texnik ta'minot, o'quv auditoriyalari, laboratoriya xonalari, amaliy mashg'ulotlar uchun zarur jihozlar, Axborot-resurs markazi, elektron kutubxona hamda raqamli ta'lim infratuzilmasining holati baholandi. O'rganish jarayonida ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgani, fanlar bo'yicha o'quv va ilmiy adabiyotlar, shuningdek elektron axborot resurslari bilan ta'minlash tizimi yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish uchun mavjud texnik baza va amaliy jihozlarning ta'lim dasturi mazmuniga mosligi kuzatildi. Shu bilan

birga, masofaviy ta'lim shaklida amalga oshirilayotgan muhandislik dasturi uchun laboratoriya sessiyalarini zamonaviy jihozlangan bazalarda o'tkazish imkoniyatini saqlab qolish hamda ta'lim platformasi va server infratuzilmasining uzluksiz va barqaror ishlashini ta'minlash o'quv natijalariga to'liq erishishning muhim shartlaridan biri sifatida baholandi. Taqdim etilgan dalillar va mavjud sharoitlar moddiy-texnik ta'minot tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga mos ravishda shakllantirilganini tasdiqladi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Sifatni ichki ta'minlash mexanizmida monitoring natijalari asosidagi boshqaruv qarorlari va manfaatdor tomonlar fikrini hujjatlashtirish to'liq tizimlashmagan (1.3-mezon qisman muvofiq deb baholangan).
- ✓ Masofaviy shakldagi laboratoriya sessiyalari bo'yicha amaliy statistik ma'lumotlar endigina shakllanmoqda.
- ✓ Xalqaro hamkorlik elementlari to'liq ishga solinmagan.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ KPI asosida monitoring yuritish, risklarni boshqarish va manfaatdor tomonlar fikr-mulohazalarini tizimli hujjatlashtirish mexanizmlarini joriy etish.
- ✓ Ta'lim dasturini davriy qayta ko'rib chiqish tartibini rasmiylashtirish.
- ✓ Masofaviy talabalar uchun laboratoriya sessiyalari grafigini va natijalar tahlilini tizimli yuritish.
- ✓ Amaliyotchi muhandislarni o'quv jarayoniga jalb etishni kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Namangan davlat texnika universitetida 60710400 – "Energetika muhandisligi" bakalavriat ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik infratuzilma har tomonlama o'rganildi. Baholash jarayonida ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgani, dastur mazmuni davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat bozori ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgani, o'quv jarayonida shaffof

baholash tizimi va akademik halollik tamoyillariga amal qilinayotgani o'z tasdig'ini topdi. Shuningdek, talabalarni qabul qilish, ularni akademik, ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi samarali yo'lga qo'yilgani, professor-o'qituvchilar tarkibi ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli salohiyatga egaligi hamda auditoriyalar, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulotlar uchun zarur jihozlar, Axborot-resurs markazi, elektron kutubxona va raqamli ta'lim infratuzilmasi ta'lim jarayonini tashkil etish talablariga javob berishi aniqlandi. Baholash yakunlariga ko'ra, 27 ta mezon dan 26 tasi to'liq muvofiq, 1.3-mezon esa qisman muvofiq deb e'tirof etildi. Mazkur mezon bo'yicha bildirilgan tavsiyalar dastur sifatini yanada takomillashtirishga xizmat qiluvchi tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, ta'lim dasturining umumiy sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Umuman olganda, mavjud dalillar va baholash natijalari 60710400 – “Energetika muhandisligi” bakalavriat ta'lim dasturining belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga muvofiqligini tasdiqlaydi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

